

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

# **REFERAT**

**MAVZU: LIRIK ASARLARDA TASVIRIY VOSITALAR**  
**(ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA )**

**Bajardi : Nasilloeva N.**

**Tekshirdi: Rajabova M.**

**2012**

## **REJA:**

- 1.Adabiyot so'z san'atining yorqin namunasi.**
- 2.She'riy san'atlar nafosati.**
- 3.Ma'naviy va lafziy san'atlar.**
- 4.Alisher Navoiyning "Aylagach" radifli g'azali tahlili.**
- 5.Xulosa.**
- 6.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## **Kirish**

**Ma'lumki, badiiy adabiyot so'z san'ati hisoblanadi. Mumtoz adabiyotni, xususan, Alisher Navoiy asarlarini – g'azaliyotini tushunish uchun aruz ilmi, tasavvuf ilmi bilan birga badiiy san'atlar va ularning o'ziga xos jihatlari bilan ham oshno bo'lish shart va zarur hisoblanadi. Chunki muayyan bir so'z yakka holatidagi ma'nosidan tashqari matn doirasida turlicha ma'nolarga ishora qilishi yoki go'zal qochirimlari yuzaga keltirishi mumkin.**

**Ko'p asrli mumtoz adabiyotimizning xazinasini yaratgan buyuk shoir va nosirlarimizning san'atkorona sehrini kashf etish uchun she'riy san'atlarini bilish talab etiladi. Bu barcha badiiy adabiyot bilan qiziquvchilar, xususan, shu kasb egalari uchun zarur.**

**Har qanday poetik asarni jozibali, purma'no qiluvchi, obrazlilikni oshiruvchi badiiy adabiyot vositasi badiiy tasvir vositalari hisoblanadi. Badiiy tasvir vositalarsiz nazmiy asarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Badiiy san'atni hosil qiluvchi bu vositalar ( o'xshatish-tashbih, mubolag'a, talmeh, istiora, tazod va boshqalar ) ning ko'pchiligi umumta'lim maktab dastur va darslilarida o'rgatiladi. Bu qatorga mubolag'a, tashbih, istiora, iyhom, tanosub, tazod, talmeh, tazmin, tajohuli orif, husni**

ta'lil, tashxis, irsoli masal, tajnis, raddi matla' kabilar kiradi. Maktab darsliklarida bu san'atlar haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Biroq badiiy tasvir vositalarining tamsil, ruju', laff va nashr, raddul ajuz al-as-sadr, tardu aks, ishtiqaq, ta'dil, jam', taqsim, tafriq, va boshqa turlari uchraydi. Badiiy san'atlar bu bilan tugab qolmaydi. Atoullloh Husayniyning "Badoyi ul sanoyi" (1981) asarida ikki yuzga yaqin badiiy san'at izohlangan. Hozirgi kunda keng kitobxonlarga ma'lum bo'lgan Anvar Hojiahmedovning "Mumtoz badiiyat malohati" (1999) asarida ellikdan ortiq badiiy san'at izohlanganligiga guvoh bo'lamiz. Badiiy san'at vositalari va ular haqidagi ma'lumotlarni chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan mutaxassislar bilan birga A. Rustamovning "Navoiyning badiiy mahorati" (1979), Y. Is'hoqovning "Alisher Navoiyning ilk lirikasi" (1965), "Navoiy poetikasi" (1983), V. Rahmonovning "She'riy san'atlar" (1962) kabi qator manbalardan ham xabardor bo'lishlari lozim.

### **Maqsadi**

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda

**badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.**

**Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.**

**U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lamini, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lamini, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.**

**She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan.**

**Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi. She'riy san'atlarni qo'llashda me'yor masalasi ham muhimdir. Ya'ni she'rda haddan tashqari san'at**

qo'llash maqbul bo'lmaganidek, ularga e'tiborsizlik bilan qarab, asardagi g'oyalarni fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she'r qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Shuning uchun ham buyuk sohibi kalomlar o'z asarlarida she'riy san'atlarni o'rni va me'yori bilan qo'llaganlar. Mavlono Atoiy va mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab va Ogahiy, Nodira va Uvaysiy, Furqat va Muqimiy kabi yetuk shoirlarning g'oyaviy-badiiy barkamol asarlari fikrimiz dalilidir. She'riy san'atlarning har biri muayyan g'oyaviy-badiiy niyatga xizmat qilishi lozimligini ular yaxshi anglaganlar. Buyuk ijodkorlar qo'llagan har qaysi she'riy san'at g'oyani badiiy ifodalash, lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta'sirchanlik bag'ishlash vazifasini bajaradi.

She'riy san'atning qimmatli baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan ham belgilanadi. Adabiyotshunosligimizda bu masalaga hamisha alohida e'tibor berilgan. Yashab o'tgan yoki ijod qilayotgan boshqa shoirlar tasvirlagan lavhalar, timsollarni takrorlamaslik maqsadida o'sha ijodkorlarning ifodalari maxsus to'plamlarga jamlab berilgan. Adabiyotimiz tarixini shu jihatdan kuzatsak, har qaysi ijodkor an'anaviy tasvirlarni mutlaqo yangi badiiy timsol va lavhalar vositasida betakror bir tarzda mujassamlashtirish yo'lidan borganligini kuzatamiz. Masalan, Sharq she'riyatida mahbuba

labining shirinligini tasvirlash orqali uning latofat-u nazokatini ta'kidlash an'ana bo'lib kelgan. Ammo ana shu badiiy haqiqatni har qaysi shoir yangicha ifodalashi zarur edi. Alisher Navoiy o'zining bir g'azalida husni ta'lil san'atiga asoslanib, mahbuba labining shirinligi haqida hayratomuz badiiy lavha yaratgandi.

Yor og'iz ochmasqa dardim so'rg'ali toptim sabab,

Ko'p chuchukliktin yopishmishlar magar ul ikki lab.

baytida mahbubaning lablari shirinligidan bir-biriga yopishib qolgani tufayli u go'zal o'z oshig'ining ahvolini so'rash uchun og'zini ocholmayapti degan tarzdagi lavha mutlaqo yangi tasvir namunasidir. Adabiyotimizda bunga o'xshash misollarni minglab keltirish mumkin. She'riy san'atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo'lishi, ya'ni qo'llanayotgan san'at hayot mantig'iga mos kelishi, unga zid bormasligi shart. Masalan, she'rda qo'llangan tashbih tasvirlanayotgan ikki narsa-mushabbih va mushabbihun bih, ya'ni o'xshatiluvchi va o'xshatilgan ikki narsa o'rtasidagi mantiqiy munosabat zaminiga qurilishi zarur.

Adabiyotshunosligimiz tarixiga murojaat qilsak, hamma asrlarda she'riy san'atlarni qo'llash borasidagi ushbu me'yor she'r va ilm ahlining diqqat markazida bo'lib kelganiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, Alisher Navoiy qalamiga

**mansub “Majolis un-nafois” asarida Husayn Boyqaroning ushbu sohadagi salohiyati haqida soʻz yuritilar ekan, bir voqea hikoya qilinadi. Unda aytilishicha, bahor kunlaridan birida Mavlono Lutfiy bilan Alisher Navoiy uchrashib qolishadi. Lutfiy yogʻayotgan yomgʻirga ishora qilib, Amir Xisrav oʻz gʻazallaridan birida shu xususida nafis bir lavha chizganini eslatadi: mahbuba bahor ayyomi bir tomon borar ekan, yomgʻir tufayli yerga yiqilay debdi-yu, nozikligidan yomgʻir rishtasini ushlab turib olibdi. Navoiy tasvirdan hayratga tushib, saroy ahliga ham soʻzlab beribdi. Ammo hammani lol qoldirgan bu lavhaga Husayn Boyqaro eʼtiroz bildiribdi. Navoiy buning boisini soʻraganida, hukmdor “ul eʼtiroz budurkim, ul yogʻin qatrasi yuqoridan quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtagʻa dagʻI hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi boʻlgʻay, aning madadi bila yiqiladurgʻon oʻzin asramogʻi maholdur” deb javob beribdi. Sheʼriy sanʼatlarga qoʻyiladigan talablarning yana biri ularda ifodalangan timsollarning oʻquvchilar ommasiga tushunarli boʻlishidir. Bu timsollarni oʻquvchi anglab yetmasa, ular oʻz mohiyatini yoʻqotishi muqarrar. Masalan, ijodkor oʻzi tasvirlayotgan shaxs, buyum, tuygʻu va boshqalarni biron narsaga qiyos qiladigan boʻlsa, oʻsha narsa oʻquvchiga tanish boʻlishi, uni oʻqiganda, koʻz oldida oʻziga tanish muayyan bir tasvir, qiyofa gavdalanishi shart.**

**She'riy san'atlar o'qituvchilarning bilim darajasiga muvofiq bo'lishi zarur. O'quvchi o'z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatleri, og'zaki va yozma adabiyoti bilan qanchalik yaxshi tanish bo'lsa, she'riy san'atlar mohiyatini ham shunchalik oson anglab yetadi va shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlar mag'zini chaqa oladi. Yana bir talab she'riy san'atlarning nafosat qoidasiga ham muvofiqligi, har qaysi badiiy lavha, timsolning o'quvchida go'zal his-tuyg'ular, tasavvurlar uyg'otishi zarurligidir. Mumtoz she'riyatimizning bezavol obidalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorlar qo'llagan har qaysi she'riy san'at hayotiy manzaralar vositasida ijobiy xislatlarni kamol toptirishga ham xizmat qilganini ko'ramiz. Ayni vaqtda ushbu san'atlar badiiy so'zning buyuk qudratini his etish, tilimizning beqiyos boyligi va go'zalligini teranroq anglab , vatanparvarlik, elsevarlik tuyg'ularini tarbiyalash vazifasini ham bajargan.**

**She'riy san'atlarni mohirona qo'llash, albatta, shoirning badiiy tafakkur salohiyati, ona tilining cheksiz go'zalliklaridan foydalanish iqtidoriga bog'liqdir.**

**Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Ma'naviy san'atlar asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalarini, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat**

qilgan bo'lsa, lafziy san'atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam bergan. Ma'naviy va lafziy san'atlardan har birining o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos imkoniyat ko'lami mavjud. Buni har bir san'at mohiyati bilan chuqurroq tanishganda yaqqol his etish mumkin.

‘Mubolag’a’- arab tilidan ‘kattalashtirish’, ‘kuchaytirish’ ma’nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo’rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati demakdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo’ladi, o’quvchi ko’zi oldida yorqinroq gavydalanadi. Alisher Navoiyning

Mehr emas, ohim o’tidin ko’kka yetmish bir sharar,

Ayb emastur gar desam: ‘Dam ursam aflok o’rtanur’

baytida oshiqning sevgilisi hajrida chekkan iztiroblari g’oyatda kuchaytirib tasvirlangan: ko’kdagi quyosh oshiq yerda chekkan oh o’tining bir uchquni emish. Bu xil bo’rttirilgan tasvir tufayli oshiq qiyofasi, ichki holati, ichki olami, qalbida mavj urgan ehtirolari ta’sirchan, jozibali ifodalangan.

Mubolag’a o’quvchining tasavvur olamiga asoslanadi, timsol holati yoki harakati belgisi ana shu tasavvur olami sindirganichalik bo’rttirilishi mumkin. O’quvchining tasavvur

**doirasiga sig'magan mubolag'a o'z ahamiyatini yo'qotadi.**

**Alisher Navoiy qalamiga mansub:**

**Gul yuzing hajrida chiqsa o'tlug' ohim gohlar,**

**Ko'kta gulnoriy bulutlardek kezar ul ohlar**

**baytini o'qigan o'quvchi tasavvurida avvalo ko'kda asta suzib borayotgan oq bulutlar paydo bo'ladi, so'ng ular gulnori-qizg'ish bulutlarga aylanadi. O'quvchi ushbu qizg'ish bulutlarning oshiq ohlari ekaniga diqqat qiladi va bu tasvirning shartli ekanini anglab yetadi. Shoir qo'llagan mubolag'a lirik timsol kechinmalarining kuchaytirilgan ifodasi ekaniga ishonch hosil qiladi.**

**Tamsil- "misol keltirish" ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat-mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'lib, ijodkor diqqati ham badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi o'xshashlikka qaratilgan bo'ladi.**

**Boshqacha qilib aytganda, birinchi misrada bayon qilingan fikr hayotiy hodisaga o'xshatiladi, shoir ifodalayotgan timsollar hayotiy misollardagi narsa yoki tushunchalarga g'oyatda mos bo'lib tushadi. Jumladan, Navoiyning mashhur**

**Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,**

**Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh baytida qo'llangan tamsil san'ati yulduzlar paydo bo'lganidan so'ng quyosh ko'rinmay qolishi hodisasi bilan birinchi misrada ifodalangan timsoliy ifoda: mahbuba yuzini bekitgach, oshiq ko'zidan yosh sochilishi hodisasi o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan. Yor orazi bilan quyosh, oshiq ko'z yoshi bilan yulduz qiyoslanib, birinchi misradagi fikrning yorqin badiiy tasviriga erishilgan.**

**Tamsil san'ati qo'llanganda, birinchi misradagi timsoliy ifoda mazmuni bilan ikkinchi misradan o'rin olgan hayotiy hodisa bayoni orasida mantiqiy muvofiqlik bo'lishi shart. Masalan, Navoiyning**

**Sovuq ohekim chekarman, garm o'lur oqmoqqa ashk,**

**Chashmalarda suv bo'lur issig', havo bo'lg'och sovuq.**

**baytiga diqqat qilsak, ana shunday muvofiqlikni kuzatishimiz mumkin.**

**Ruju' - arabcha "qaytish" ma'nosini bildirib, she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo'llangan badiiy tasviri vositasidan qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchgliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usulidir.**

Mumtoz she'riyatimizda ruju' usuli ayniqsa tashbeh qo'llangan misralarda ko'proq uchraydi.

Baytning birinchi misrasi yoxud oldingi baytda tashbih keltirilgan bo'lsa, shoir undan chekinar ekan: keltirilgan tashbih belgisini yanada kuchaytiruvchi iboralar qo'shadi yoki uning xususiyatini yanada oydinlashtiradi, to'ldiradi. Masalan, Navoiy Farhodning dengiz safarini tasvirlar ekan, nahanglarni ta'riflab, yozadi:

Suda yuz tog'u, yo'q biriga orom,

Vale to'g'iki, bo'lg'ay mohi andom.

Iyhom – arab tilida “shubhaga solish” degan ma'noni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda esa iyhom haqiqiy va majoziy ma'nolarga ega, yohud shaklan bir, ma'no jihatidan har xil bo'lgan so'z yoki so'z birikmasini she'riyatda qo'llangan holda bir baytda ikki xil ma'noni ifoda etish san'atidir. Masalan, Navoiyning

Bosh qo'yay dedim oyog'I tufrog'iga, dedi: “Qo'y”,

Bo'sa istab la'li rangin so'rdim, ersa dedi: “Ol”.

Misralarining birinchisidagi “qo'y” so'zini ikki ma'noda “mayli qo'ya qol” hamda “qo'y, kerakmas” ma'nosida tushunish mumkin.

Shoir qo'lida qalam, she'r xayoli bilan band. Uning qarshisida mayin nur taratib ham yonib turibdi. Alisher qalamning uchi bilan sham piligini yoyib qo'yadi. Ana shunda shoir xayolida she'r tug'iladi. Sham yorug'ligi va kuydirishi bilan uning ko'z oldida sevikli yori bo'lib jonlanadi. Axir uning dil uyini yoritgan, zulmatli hayot ichra uning xayolini charog'on qilgan va tunlar hijronida o'rtaqan yor sham emasmi? Axir yor ham sochini har tomonga yoyib tarasa husni ortadi – bamisoli yongandek. Shoir bu go'zal tashbehni go'zal baytga ko'chiradi.

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,

Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Alisher qalamni qo'yib yana xayolga cho'madi. Poyonsiz ko'm-ko'k o'tlarda xanda urib boshiga chechaklardan chambaraklar qilib, yoqalariga gullar taqib yayrab yurgan yori ko'z oldiga keladi. Bu yor muhabbatning tirik timsoli. Ammo shoir uchun u faqat xayolda namoyon bo'luvchi baxt, aslida uning yuragi qon, ming xil dard-u azoblar qurboni. Alisher xayolida gul kiygan, yuzini gullar bilan bezagan yorga murojaat qiladi:

Yuzini gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,

Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Yo'q, sen yuzlaringni gullar bilan bezab meni qurbon qilmading, aksincha meni qurbon qilgach, sachragan qonlarim yuzingda gullar bo'lib turibdi. Shoir uchun hayotning beayovligi yorning qotil va beshafqatligida ko'rinadi. Betinim jang-u jadal, qirg'inlar yorning yag'mogarligida, zulmkorligida namoyon bo'ladi. G'anim lashkari yurti vayron qilsa, yiroqdagi yorning yuborgan g'am lashkari, firoq lashkari ko'ngil mulkini xarob qiladi. Dashti Qipchoqdan kelgan yov shaharlarni byzib tekislab bog'larni kesib bug'doy sepgulik dala qilgandek, yor oshiqning ko'ngil kishvarini vayron qilib, tig' bilan o'yib, o'z qoni bilan sug'orib, paykon boshloqlarini tikmadimi?

Tig' ila paykonlarning yitdi ko'ngil bo'lgach xarob

Suv quyib tuxum ekding ul kishvarni vayron aylagach.

Ya'ni: "tig' ilao'qlaring ko'nglimning bog'I edi, sen uni xarob qilding, meni bog'imdan mahrum etding..."

Ammo ishq yo'lida to'kilgan qon hamisha tabarruk. Agar u dunyoda jannat bo'lsa unga chin oshiqlar bormoqqa haqli.

Mana, oshiqni tutib, kaltaklab- jarohatlab, qatl etmoqqa olib keldilar. Hozir uni yechintiradilar, qotil xanjari uning bo'g'ziga qadaladi.

**Sharillab oqqan issiq qon uning tanidagi jarohatlarni yopadi. Yo'q. Bu oddiy qon emas. Oshiqning muborak qilgani jannat malaklari kelgan. Bizga qon bo'lib ko'ringan narsa jannat xazinadori oshiqning ustiga yopgan aivon libos - oily martaba, tabarruklik timsoli.**

**Qon emaskim, yopdi gulgun xulla jannat xozini,**

**Ishq maqtulin shahid aylarda ayon aylagach.**

**Bu ajoyib baytning xurofot avjga mingan zamonda, sevgi gunoh saqlanib, oshiq mahkum bo'lgan zamonda bitilgan.**

**Badiiy adabiyotning jozibasini ta'minlashda badiiy vositalarning o'rni beqiyosdir. Bu hol, ayniqsa, mumtoz adabiyoti namunalarida o'ziga xos ravishda kechadi. Asarni o'qishli bo'lishida ma'naviy va lafziy san'atlarning ahamiyati katta.**

### **Xulosa**

**Tadqiqotimiz asosi bo'lgan Alisher Navoiy nisoriy merosida ko'plab tasviriy vositalar borki, o'quvchini o'ziga rom qiladi hamda shuuriga muhrlanib qoladi. Alisher Navoiy g'azaliyoti bilan tanishar ekanmiz, deyarli har bir misrada badiiy tasvir vositalarining go'zal namunalariga duch kelamiz. Uning yana bir yutug'I shundaki, boshqa adiblar ijodida kuzatilmaydigan, ya'ni noan'anaviy tarzda tasvir usullaridan foydalandi. Bu**

**esa Navoiy izdoshlari uchun ijod maktabi vazifasini o'tadi.  
Navoiy g'azallarida keyingi avlod vakillari uchun ilhom manbai  
bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. Badiiy ijod haqida. – T.: “O'zadabiynashr”, 1960**
- 2. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. -  
T.: “O'qituvchi”, 1996**
- 3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. S.T.  
“O'zadavnashr”, 1926.**
- 4. Forobiy A.N. She'r san'ati. – T.: “G'.G'.”, 1979**
- 5. Haqqul I. Irfon va idrok. T.: “Sharq” 1998.**
- 6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. T.:  
“Sharq”, 1999.**

**7. Is'hoqov Y. Navoiy va o'zbek she'riyatidagi uslublar masalasi. O'zbek tili va adabiyoti. 1990, 5- son.**

**8. Is'hoqov Y. Qaytarish san'ati . O'zbek tili va adabiyoti. 1972, 2-son.**

**9. Is'hoqov Y. Radd ul- matla'. O'zbek tili va adabiyoti. 1973, 1-son.**

**10. Jo'rayev H. Navoiy g'azalchiligida husni matla' san'ati. O'zbek tili va adabiyoti. 1998, 2-son.**

**11. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar T.: "G'.G'". 1976**

**12. Rustamov A. So'z xususida so'z T. 1987.**

**13. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur T. 1987**

**14. Sharipova M. Navoiy g'azaliga yozilgan bor nazira O'zbek tili va adabiyoti. 2005, 4-son.**

**15. Shukurov n. Uslublar va janrlar – T.: “G’.G’.”  
1973.**